

SIYOSIY MATNLARNI LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISHNING TAHLIL BOSQICHLARI

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/APIV6535

Nargisa Soliyeva¹

Abstrakt

So'nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy-siyosiy xavfsizlikka daxl qiluvchi konfliktli matnlar, yozishmalar, axborotlar soni ortib bormoqda. Bu esa siyosiy matnlarni ekspertiza qilish tamoyillari, tahlil bosiqchlarini belgilash zaruratini paydo qiladi. Maqolada ijtimoiy-siyosiy xavfsizlikka daxl qiluvchi siyosiy matnlar va ularni ekspertizadan o'tkazish tahlil bosqichlari, tahlilda ekspertlik vazifalari va yondashuvlari, qo'lyozmalar, ijtimoiy tarmoq xabarlarini ekspertiza qilish tahlil jarayoni va bosqichlari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *siyosiy matn, da'vat, provokatsiya, manipulatsiya, ekspertiza, tahlil bosqichi, ekspert, lingvokriminalistik tadqiq.*

KIRISH

Lingvistik ekspertizaning tahlil bosqichlarini belgilash tadqiqot jarayoni izchil va samarali kechishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sifatli ekspertiza o'tkazish uchun quyidagi shartlar zarur;

- ekspertiza obyekti bilan tanish bo'lgan, ekspertiza ishida tajribaga ega bo'lgan mutaxassislardan iborat ekspert komissiyasining mavjudligi;
- ekspertizalarni tashkil etish va o'tkazish texnologiyasiga, ekspert ma'lumotlarini olish va tahlil qilish usullariga professional egalik qiluvchi tahliliy guruhning mavjudligi;
- ishonchli ekspert ma'lumotlarini olish;
- ekspert ma'lumotlarini to'g'ri qayta ishlash va tahlil qilish.

¹Soliyeva Nargisa Abdixamitovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi.

E-pochta: nsoliev@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-0869-601X

Iqtibos uchun: Soliyeva, N.A. 2023. "Siyosiy matnlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazish tahlil bosqichlari". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5): 31-36. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/APIV6535.

ASOSIY QISM

Ekspertizaning quyidagi asosiy bosqichlari mavjud:

1. Ekspertiza maqsadini shakllantirish.
2. Baholash obyektlarini qurish yoki ularning xarakteristikalarini (ekspertiza boshlanishi bilan bu bosqich allaqachon yakunlanishi mumkin).
3. Ekspertlar guruhini tuzish.
4. Ekspert baholash usuli va ekspert baholarini taqdim etish usulini aniqlash.
5. Ekspertiza o'tkazish.
6. Ekspertiza natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish.
7. Mutaxassislarining fikrlarini aniqlashtirish yoki yaqinlashtirish zarurati tug'ilganda, takroriy imtihon bosqichi.
8. Tavsiya variantlarini shakllantirish.

Tadqiqotchi K. Musulmonova lingvistik ekspertiza bosqichlarini ajratishda quyidagi tendensiyaga tayanadi: Lingvokriminalistik tadqiq bosqichlari ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan jarayon hisoblanadi. Bir bosqich ikkinchi bosqichni taqozo etish kerak. Shu nuqtainazardan lingvokriminalistik tadqiq o'tkazishda ularni ikki asosiy turga bo'lishimiz mumkin:

- 1) umumiy tadqiq bosqichlari;
- 2) maxsus tadqiq bosqichlari. [Musulmonova 2021, 51]

Umumiy tadqiq bosqichlari lingvokriminalistik tadqiqning barcha turlari uchun ahamiyatli bo'lgan, takrorlanuvchi jarayon bo'lib xizmat qiladi. Maxsus bosqichlar esa har bir konfliktli matnning kriminal xarakterli xususiyatlari, holati o'rta qo'yilgan muammo asosida yuzaga keladi.

Tahlilning umumiy bosqichlariga muvofiq quyidagi ziddiyatli matn bo'yicha lingvistik ekspertiza o'tkazishni amalga oshirib ko'ramiz. Konfliktli matnni tahlil qilishda mutaxassis-tilshunoslar lug'at va grammatik til birliklari hamda ularning asosiy ma'nolarini belgilaydigan muhim bir qoidani hisobga olishi kerak. Bunga birinchi navbatda quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

1. Matndagi so'zning ma'nosi faqat lug'atdagi so'zga berilgan ma'nonigina emas, balki berilgan matndagi so'z anglatayotgan obyekt yoki voqelik hodisasi haqidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin. Bunda ma'lum bir so'z va uning ma'lum bir madaniyatga xos ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan g'oyalar, baholashlar hamda assotsiatsiyalarni ham hisobga olishi zarur;

2. Gapning ma'nosi so'z, grammatik morfemalar, sintaktik va intonatsion konstruksiyalar ma'nolarining yig'indisigina emas,

balki gapning kommunikativ o'zaro ta'sir tarkibida bajaradigan vazifasidir;

3. Matn ma'nosi uni tashkil etuvchi jumlar ma'nolarining oddiy yig'indisi emas, chunki u izchil matndagi alohida gaplar, iboralar va so'zlar o'rtasida yuzaga keladigan semantik munosabatlarni (sabab, shartlilik, bir vaqtdalik, ketma-ketlik, bog'lovchilar, so'z birikmalari) ham o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin;

4. Ma'no matnda aniq va yashirin shaklda bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, sud-siyosatshunoslik lingvistik ekspertizasida qo'lyozma, bosma matn, audio-xabar, videoxabar tarzidagi materiallar taqdim etilishi mumkin. Ushbu holatlarni ekspertiza qilishda umumiy va xususiy jihatlar mavjud.

A.N.Baranov konfliktli matnlarni lingvokriminalistik tadqiq etishda quyidagi tadqiq bosqichlarini sanab o'tadi:

- qo'lyozma matnning dinamik harakatini aniqlash bosqichi (harakatning yo'nalganligi, belgilarning individualligi);

- fonetik (shu jumladan, fonologik va fonoskopik);

- morfologik (aksariyat hollarda savdo belgilarini tahlil qilishda samarali deb baholanadi);

- sintaktik, diskursiv tahlil (og'zaki va kommunikativ vaziyatning og'zaki bo'lmagan tarkibiy qismlari tahlil qilinadi) . [Baranov 2011, 56]

Indoneziyalik tadqiqotchilar tomonidan lingvokriminalistik tadqiq o'tkazishda quyidagi bosqichlar ajratib ko'rsatiladi:

1) ovozni identifikatsiya qilish (masalan, tahdid soluvchi lentadagi ovoz kimning ovozi yekanligini aniqlash;

2) muallifni identifikatsiyalash (kimligini aniqlash) – matnni boshqa bir matnga yoki gumon qilinuvchining yozuvlarini o'zaro qiyoslash;

3) nutqni tahlil qilish (aniqlashga yordam berish uchun ko'pincha yashirincha yozib olingan yozma yoki og'zaki nutqning tuzilishini tahlil qilish);

4) tahlilning lingvistik jihatlariga o'tish (fonetik-fonologik, punktuatsiya, leksik-semantik, morfologik, sintaktik, uslubiy);

5) dialektologik tahlil (so'zning hududiy xoslanish xususiyatlariga diqqat qilish);

6) so'zlarning asl mohiyatiga ko'ra tahlil. Bu etimologik tahlilga ham yaqin turadi;

7) lingvistik xilma-xilliklarni tahlil qilish bosqichi (matndagi istalgan birlikning xilma-xil variantda ifodalanishi) . [Houtman and Suryati 2018, 215]

Yuqorida ko'rsatilgan tahlil bosqichlari matnning umumiy tahlil bosqichiga taalluqli. Xususiyl tahlil bosqichlari har bir ekspertiza turi uchun alohida mohiyat kasb etadi.

METODLAR TAHLILI

Siyosiy matnlar ekspertizasini amalga oshirishda diagnostik masalalarini hal etishning umumiy prinsiplariga muvofiq tadqiqotning tayyorgarlik, diagnostik, yakunlovchi bosqichlardan iborat bosqich va davrlar ajratiladi. Ekspert masalalarini hal etish tadqiqotning asosiy, diagnostika bosqichini tashkil etadi.

Diagnostika bosqichi analitik va taqqoslash pallalaridan tashkil topib, ularning har biri tilshunoslik va psixologik qismlarga ega. Har qaysi masalani hal etishda dastlab nima aytilgani o'rganiladi. Buning uchun uch turdan iborat tilshunoslik tahlili amalga oshiriladi: predmet-mavzuga oid, baholash his-hayajon bilan bog'liq va maqsadli (nutqiy maqsadlar tahlili). Tilshunoslikka oid mazkur uch tahlil barcha zaruriy fikrlarni aniqlash imkonini beradi. Tayyorgarlik bosqichi bilan datslabki tahlil bosqichi bir xil mazmunga ega. Diagnostik bosqichda kelib tushgan materialning psixologik, lingvistik, yuridik tarkibiy qismlari ajratiladi. Tadqiqotning tayyorgarlik bosqichida ekspert ekspertiza tayinlashi haqidagi qaror (ajrim) bilan tanishadi, vazifa turini aniqlaydi (ekspert oldiga qo'yilgan savollar, ekspertlik vazifasi, yechilishi kerak bo'lgan jihatlar). Shuningdek kelib tushgan obyektlar hamda ish materiallaridagi ma'lumotlar bilan tanishadi. Ularning diagnostik tadqiqot bosqichiga tayyorlik jihatini tekshiradi. Ya'ni materialning sifati, ovozli holatlarda ovoz yozilish sifati, qo'lyozma matnlarda qog'ozning tekshiruvga yaroqli ekanligi, aniqlash imkioni bor/yo'qligini aniqlash.

XULOSA

Yuqoridagi holatlarda ekspert oldiga qo'yilgan savollar mohiyati qisman o'zgaradi. Tahlil bosqichlari esa yuqorida ta'kidlanganidek, umumiy tahlil bosqichidan o'tkaziladi. Bunda taqdim etilgan ekspertiza obyektining texnik holati, ekspertizaga yaroqli/yaroqli emaslik faktori baholanadi. Tekshiruv bosqichidan o'tgach diagnostik bosqichiga yetib keladi. Ushbu bosqichda obyekt tavsiflanadi, ekspertizaga qaysi jihati e'tiborga olinishi baholanadi, metodlar, adabiyotlar belgilab olinadi. Navbatdagi bosqich tahlilning xususiyl bosqichi sanaladi. Odatda, xususiyl tahlil bosqichida asosiy e'tibor

lingvistik jihatdan baholashga qaratiladi. Biz esa ushbu bosqichga quyidagi jihatlar ham kiritilishi lozim deb hisoblaymiz:

Obyektning yuridik (qanday tartibda jazo qo'llash, qonunchilikning qaysi bandlari buzilganlik faktorini baholash), kriminalistik (jinoiy javobgarlikka asos bo'ladimi, yo'qmi, qaysi asosga ko'ra) hamda lingvistik tarkibiy qism (leksik birliklarning semantik mundariyasi, morfologik grammatik tuzilishlar).

Adabiyotlar

- Musulmonova, K. 2021. *Lingvistik ekspertiza tahlil bosqichlari mazmuni*// Жамият ва инновациялар - Общество и инновация - Society and innovations. Тошкент.
- Баранов, А.Н. 2011. *Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: учеб. пособие* [Текст]. М.: Флинта: Наука, С 51-56.
- Houtman and Suryati. (2018) The History of Forensic Linguistics as an Assisting Tool in the Analysis of Legal Terms//Sriwijaya Law Review Vol. 2 Issue 2, July p215.
- Голубева, А. В., Максимов В. И. 2008. *Русский язык и культура речи*. М. Доценко, Е. Л. *Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита*. М., 1996.
- Знаков, В.В. 2000. *Макиавеллизм: психологическое свойство личности и методика его исследования* // Психологический журнал. Тошкент. 21. № 5

ANALYSIS STAGES OF LINGUISTIC EXAMINATION OF POLITICAL TEXTS

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/APIV6535

Nargiza Solieva¹

Abstract

Recently, the number of conflicting texts, correspondence, and information on social and political security has been increasing on social networks. This creates the need to determine the principles of examination of political texts, the criteria of analysis. There is a need for linguistic knowledge in determining the pragmatic content of messages transmitted

¹Solieva Nargisa Abdikhamitovna – researcher at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: nsolieva@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-0869-601X

For reference: Solieva, N.A. 2023. "Analysis stages of linguistic examination of political texts". Uzbekistan: language and culture. Issues of Applied philology. 1(5): 31-36. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/APIV6535.

from social networks, correct assessment, and forming expert conclusions. There is an increasing demand for the application of linguistic knowledge in practice and the use of forensic expertise. The article discusses political texts related to social and political security and the analysis stages of their expert examination, expert tasks and approaches in the analysis, expert analysis of manuscripts, social network messages. process and stages are discussed.

Key words: *political text, invitation, provocation, manipulation, expertise, analysis stage, expert, linguocriminological research.*

References

- Musulmonova, K. 2021. *Lingvistik ekspertiza tahlil bosqichlari mazmuni*// Жамият ва инновациялар - Общество и инновация - Society and innovations. Т.:
Баранов, А.Н. 2011. *Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: учеб. пособие* [Текст]. М.: Флинта: Наука, С. 51-56
Houtman and Suryati. (2018) *The History of Forensic Linguistics as an Assisting Tool in the Analysis of Legal Terms*//Sriwijaya Law Review Vol. 2 Issue 2, July p215
Голубева, А. В., Максимов В. И. 2008. *Русский язык и культура речи*. М.
Доценко, Е. Л. 1996. *Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита*. М.
Знаков, В.В. 2000. *Макиавеллизм: психологическое свойство личности и методика его исследования* // Психологический журнал. Т. 21. № 5.